

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASH ASOSIDA INTELLEKTUALLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Pardaboyeva Dilnoza G'aybulli qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti,
Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0000-0900-6546>
e-mail: dilnozapardaboyevad@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual rivojlanishida tanqidiy va kreativ fikrlashni qo'llash metodikasi muhokama qilinadi. Tanqidiy fikrlash o'qituvchiga muammolarni chuqur tahlil qilish, mantiqiy qarorlar qabul qilish imkonini bersa, kreativ fikrlash pedagogga ijodkorlik bilan darslarni tashkil etish va o'quvchilarning qiziqishini oshirishda yordam beradi. Bu esa nafaqat boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshiradi, balki ta'lim tizimining umumiy samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchilari, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, metod, rivojlantirish, metodik yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика использования критического и творческого мышления в интеллектуальном развитии будущих учителей начальной школы. Критическое мышление позволяет учителю глубоко анализировать проблемы и принимать логические решения, а творческое мышление помогает учителю творчески организовывать уроки и повышать интерес учащихся. Это не только повышает качество подготовки учителей начальных классов, но и положительно влияет на общую эффективность системы образования.

Ключевые слова: учителя начальных классов, критическое мышление, творческое мышление, метод, разработка, методические подходы.

Abstract: This article discusses the methodology of using critical and creative thinking in the intellectual development of future elementary school teachers. Critical thinking allows the teacher to deeply analyze problems and make logical decisions, while creative thinking helps the teacher organize lessons creatively and increase the interest of students. This not only increases the quality of primary school teacher training, but also has a positive effect on the overall efficiency of the education system.


Key words: primary school teachers, critical thinking, creative thinking, method, development, methodological approaches.

Kirish

Mamlakatimizda hozirgi kunda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va zamonaviy talablar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasiga faqat bilim berish bilan cheklanmay, ularning tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasini ham yuklamoqda. Shu bilan birga, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullarini ta’sirini baholash, tanqidiy fikrlashga asoslangan metodik faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, tanqidiy fikrlashga asoslangan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati tug‘ilmoqda. Boshlang‘ich ta’limga bunday yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyasi talablariga mos ravishda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik va metodik xususiyatlarini aniqlashtirish dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi keng qamrovli islohotlar natijasida oliy ta’limda sifatli ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirish, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv sharoitida talabalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish usullarini ta’minlovchi imkoniyatlar salmog‘i kengaydi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab quvvatlash va ro‘yobga chiqarishga sharoitlar yaratish.” kabi vazifalar belgilab berildi. Bu borada oliy ta’lim muassasalarining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqobatbardosh, jamoatchilik muhokamasiga o‘z hissasini qo‘shadigan, tanqidiy fikrlaydigan, eng ilg‘or bilim va metodik yondashuvlarni puxta o‘zlashtirgan, innovatsion, intellektual rivojlangan shaxs etib tarbiyalash ko‘zda tutilgan.

Tadqiqot usullari.

Tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarni tahlil qilish uchun tadqiqot usullari qo‘llanildi (1-rasm)



1-rasm.

Adabiyotlarni tahlil qilish. Tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, maqolalar va kitoblar tahlil qilindi. Ushbu tahlil zamonaviy pedagogik metodlarning asosiy tamoyillari va ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam berdi. Ayniqsa, Bloomning taksonomiyasi va Torrance ijodkorlik testlari kabi ilmiy asoslarga e‘tibor qaratildi.

Eksperimental yondashuv. Tadqiqot uchun boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari orasidan 50 nafar ishtirokchi tanlab olindi. Ishtirokchilar ikkita guruhga bo‘lindi: eksperimental va nazorat guruhi. Eksperimental guruh bilan tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodika asosida mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Nazorat guruhi bilan esa an‘anaviy usulda darslar olib borildi.

Amaliy mashg‘ulotlar. Tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, loyiha ishlari, savol-javob sessiyalari va ijodiy topshiriqlar tashkil etildi. Ushbu mashg‘ulotlarda talabalar turli metodlarni qo‘llash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishdi va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishdi.


So‘rovnoma va intervyu. Mashg‘ulotlardan oldin va keyin talabalar bilan so‘rovnoma o‘tkazildi. Unda ularning tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlari, darslarga bo‘lgan qiziqishi va o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchi baholandi. Shuningdek, talabalar bilan chuqur intervyular tashkil etilib, yangi metodik yondashuvlar bo‘yicha ularning fikrlari olindi.

Statistik tahlil. Eksperiment davomida olingan ma‘lumotlar matematik va statistik usullar yordamida qayta ishlanib, natijalar grafik va jadval ko‘rinishida ifoda qilindi. Eksperimental guruh va nazorat guruhi o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinib, metodikaning samaradorligi baholandi.

Yuqoridagi usullar kombinatsiyasi yordamida talabalar o‘rtasida tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari chuqur o‘rganildi va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi bir necha jihatlarida namoyon bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm.

Tanqidiy fikrlash darajasining o‘shishi. Eksperiment oldidan talabalar tanqidiy fikrlash darajasi 65% ni tashkil etgan bo‘lsa, maxsus metodika asosida olib borilgan mashg‘ulotlardan so‘ng bu ko‘rsatkich 80% ga yetdi. Bu talabalar o‘rtasida muammolarni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va mantiqiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarining sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi.

Kreativ fikrlash darajasining oshishi. Kreativ fikrlash darajasi dastlab 70% bo‘lgan bo‘lsa, mashg‘ulotlardan keyin 85% ga oshdi. Talabalar ijodiy vazifalarni bajarishda turli yangi g‘oyalar taklif qilish, nostandart yondashuvlar ishlab chiqish va ijodkorlik ko‘rsatish qobiliyatlarini namoyon qilishdi.

Faollik va motivatsiyaning kuchayishi. Talabalar mashg‘ulotlarda faolroq qatnashgan va topshiriqlarni bajarishda o‘zlarini ishonchliroq his qilishgan. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 90% talabalar yangi metodikaning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirganini ta’kidladi.

Nazorat guruhi bilan farqlar. Eksperimental guruh va nazorat guruhi natijalari o‘rtasida sezilarli farq aniqlandi. Eksperimental guruhda tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarining o‘shishi nazorat guruhiga nisbatan 20-25% yuqori bo‘ldi. Bu maxsus metodikaning samaradorligini isbotlaydi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu o‘z navbatida ularning o‘qitish sifatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari kuchli bo‘lishi uchun muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga asoslangan amaliy mashg‘ulotlarni ko‘proq o‘tkazish lozim. Shu bilan birga, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quv jarayonida ochiq savollar va loyiha asosida ta’lim berish usullarini qo‘llash samarali ekani aniqlandi. Ushbu jarayonda talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy savollarga javob izlash va turli bahs-munozaralarni tashkil qilishning muhimligi namoyon bo‘ldi. Masalan, dars jarayonida talabalar muammoli savollarga javob topish uchun jamoaviy ishlashga o‘rgatilganida, ular o‘zaro fikr almashish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirganliklari kuzatildi. Bundan tashqari, kreativ fikrlashni rivojlantirishda ijodiy vazifalar, loyiha ishlari va ochiq savollarga asoslangan mashg‘ulotlarning samaradorligi qayd etildi. Bu mashg‘ulotlar davomida talabalar turli muammolarga nostandart yondashuvlarni ishlab chiqib, o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishgan. Misol uchun, bolalarga qiziqarli hikoyalar yaratish yoki muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish topshirilganida, ular o‘zlarining ijodiy imkoniyatlarini kengroq namoyon qilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida talabalarning dars jarayonidagi faolligi va ishtiyoqi oshganligi aniqlandi. Bu tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi usullar talabalarning motivatsiyasini kuchaytirishi va ular orasida o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashi bilan izohlanadi. Ushbu yondashuvlar faqat nazariy bilimlarni oshirish bilan cheklanmasdan, talabalarni kelgusida mustaqil fikr yuritishga va ijodkorlikka yo‘naltiradi.

Biroq, tadqiqotda ba’zi qiyinchiliklar ham kuzatildi. Talabalarning dastlabki bosqichlarda tanqidiy va kreativ fikrlash topshiriqlarini bajarishda qiynalishlari, asosan, ularning muayyan mavzulardagi bilimlarining yetarli emasligi va o‘z fikrlarini ochiq bayon qilishda sustkashlik bilan bog‘liq bo‘ldi. Shu sababli, dastlabki bosqichda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlarni yanada moslashuvchan qilish va talabalarning bilim darajasini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligi ma’lum bo‘ldi. Kelgusida ushbu metodlarni yanada kengroq joriy etish, turli yoshdagi talabalar guruhlar va boshqa pedagogik yo‘nalishlarga qo‘llash orqali natijalarni kengroq o‘rganish tavsiya etiladi. Bu esa nafaqat boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshiradi, balki ta’lim tizimining umumiy samaradorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar samarador ekanligi tasdiqlandi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs-munozaralar va savol-javob sessiyalari muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatildi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda esa ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari va nostandart yondashuvlar eng samarali usullar bo‘lib chiqdi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan metodikani pedagogika yo‘nalishidagi boshqa talaba guruhlariga qo‘llash hamda uni yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud. Kelgusida bu metodikani turli yoshdagi talaba guruhlariga qo‘llash va uzoq muddatli natijalarni baholash bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga va zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan o‘qituvchilarni tayyorlashga katta hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29 dekabrda “Ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish to‘g‘risi”gi qarori.
- 3.Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives.
- 4.Halpern, D. F. (1998). Teaching critical thinking for transfer across domains. *American Psychologist*, 53(4), 449–455
- 5.Torrance, E. P. (1966). Torrance Tests of Creative Thinking.
6. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta’limida Talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. -T.: Fan, 2005. - 140 b.
7. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. - T.: Fan, 2004. - 173 b
8. Pardaboyeva D.G‘. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashga asoslangan intellektini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Maqola. BELARUS-O‘ZBEK ilmiy-metodik jurnal 2024 № 5 57-63.